XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Ishtixon ko‘chasi, 4-uy +998 66 629 1521

2025-yil 21-fevral VII-5-50-7-95-K/25 Ishtixon tumani

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputatlari tomonidan o‘z saylovchilari oldida axborot berish bo‘yicha tartibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasining 2024-yil 31-yanvardagi “Mahalliy Kengashlar deputatlari faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 22-sonli Qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasining 2024-yil 2-fevraldagi 22-04/444-sonli xatiga, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi VII-6-11-7-0-K/25-sonli qaroriga “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, 5-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasining 2024-yil 31-yanvardagi “Mahalliy Kengashlar deputatlari faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 22-sonli Qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputatlari tomonidan o‘z saylovchilari oldida axborot berish tartibi 1-ilovaga;

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputatlarining joriy yilning birinchi choragida saylovchilar oldida o‘z faoliyati va kelgusidagi rejalari yuzasidan axborot berish reja grafigi 2-ilovaga;

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputatlari tomonidan saylovchilar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlarda ko‘tarilgan muammolarni hal etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi Ishtixon tumani bo‘limi (K.Yavkochdiyev)ga:

- mahalla fuqarolar yig‘ini raislari belgilangan Reja-grafik bo‘yicha Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputatlari tomonidan o‘z hududida istiqomat qiluvchi saylovchilariga deputat axborot beradigan joy va vaqtini xabardor qilib borsin.

4. Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputatlik guruhi rahbarlari, tuman hokimligi bilan birgalikda Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputatlari tomonidan o‘z saylovchilari oldida axborot berish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish hamda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan tartibda Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi kotibiyatiga taqdim etib borish topshirilsin.

5. Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi kotibiyatiga:

- Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputatlik guruhi rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni umumlashtirish hamda aniqlangan mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida har chorakning yakuni bilan Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi sessiyasi muhokamasiga kiritib borish topshirilsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari va aloqador tashkilotlar bilan birgalikda:

- saylovchilar tomonidan bildirilgan tuman, mahalla miqyosida yechilishi mumkin bo‘lgan mavjud muammolarni belgilangan tartibda ijobiy hal etib borish;

- viloyat darajasida hal etilishi mumkin bo‘lgan muammolarni tegishli tartibda viloyat idoralariga taqdim etib borish yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (M.Tursunov), “Ishtixon ovozi” gazetasi muharriri (M.Rabbimova)lar deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuv o‘tkazish joyi hamda vaqti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tuman hokimligining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining barcha doimiy komissiyalari raislari zimmalariga yuklansin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi KIYAMOV NURALI KUVANDIKOVICH

Xalq deputatlari Ishtixon tumani
Kengashining
2025-yil 21-fevraldagi
VII-5-50-7-95-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tuman Kengashi deputatlari tomonidan o‘z saylovchilari oldida axborot berishning
TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi va “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, mahalliy Kengash deputatining saylovchilarga o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot berishining tartib-taomillarini belgilaydi.

2. Deputatning saylovchilarga o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot berishidan asosiy maqsad – uning o‘z saylovchilari oldidagi mas’uliyatini va hisobdorlik hissini oshirish, deputatlik faoliyatining ochiqligini, aholining xabardorligini kuchaytirish va pirovardida xalqning vakillik organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashdan iborat.

3. Deputat vaqti-vaqti bilan, lekin yiliga kamida to‘rt marta saylovchilarga o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot beradi.

2-bob. Deputat faoliyati to‘g‘risidagi axborot berishni tashkil etish

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan har chorakning birinchi sessiyasida deputatlarning saylovchilar oldida o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot berishi bo‘yicha Reja- grafigi muhokama qilinadi va tasdiqlanadi.

Reja-grafik har bir deputatning taklifiga binoan tuman Kengash kotibiyati tomonidan shakllantirilib, unda axborot beriladigan hudud va vaqt ko‘rsatiladi.

Deputatlar o‘z xohishiga ko‘ra saylovchilar oldida o‘z faoliyati to‘g‘risida Reja- grafikdan tashqari ham axborot berishi mumkin.

5. Tasdiqlangan Reja-grafik tuman Kengashi kotibiyati tomonidan siyosiy partiyalar va mahalliy ijroiya hokimiyati organlariga yuboriladi.

6. Deputat saylovchilarga o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotini berishni tashkillashtirish maqsadida uning iltimosiga ko‘ra ijro etuvchi hokimiyat organlari bino ajratilishini tashkil etadilar, saylovchilar bilan uchrashuv o‘tkaziladigan joy va vaqt haqida fuqarolarga xabar beradilar, uchrashuvda ishtirok etish uchun deputatning taklifiga binoan o‘zlarining mas’ul vakillarini yuboradilar.

7. Mahalliy ijroiya hokimiyati organi:

deputatning o‘z saylovchilari bilan uchrashuvini o‘tkazishi uchun saylovchilar kelishiga qulay bo‘lgan joy ajratilishni ta’minlaydi. deputatning o‘z saylovchilari oldida axborot berishi to‘g‘risida ushbu deputat saylangan hududidagi mahalla fuqarolar yig‘inlarini uchrashuvdan kamida yetti kun oldin yozma ravishda ogohlantiradi.

8. Mahalla fuqarolar yig‘ini raislari tomonidan uchrashuv haqida o‘z hududida istiqomat qiluvchi saylovchilarga deputat axborot beradigan joy va vaqt haqida uchrashuvdan kamida uch kun oldin e’lon qilinadi.

9. Deputatning saylovchilar bilan uchrashuv o‘tkazish joyi va vaqti haqidagi ma’lumotlar hududdagi ommaviy axborot vositalarida, siyosiy partiyalarning hamda tuman Kengashining

rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida, shuningdek, deputatning ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy sahifalarida e’lon qilib borilishi mumkin.

10. Deputat saylovchilar bilan uchrashuvda o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotning mazmunidan kelib chiqqan holda hududdagi tegishli davlat organlari va tashkilotlariga ko‘rib chiqiladigan masalalar bo‘yicha mas’ul xodimlar ishtirokini ta’minlash haqida xat yuboradi.

3-bob. Deputatning o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotiga qo‘yiladigan talablar

11. Deputat axborotidagi ma’lumotlar ishonchli va asoslangan bo‘lishi, barcha uchun tushunarli, sodda hamda ravon tilda berilishi talab etiladi.

Deputatning axborotida statistik ko‘rsatkichlar, foto va video materiallar o‘rin egallashi mumkin.

12. Deputatning o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotida quyidagilar bo‘lishi mumkin:

– deputatning saylovoldi dasturi ijrosi yuzasidan qilingan ishlar;

– mahalliy davlat hokimiyati organlariga yuborilgan deputat so‘rovlari, murojaatlar hamda ularning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma’lumotlar;

– tuman Kengashi sessiyasida hududiy davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobot (axborot)larini eshitish va eshituv yakunlari bo‘yicha erishilgan natijalar haqidagi ma’lumotlar;

– hududdagi davlat organlari va tashkilotlari hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

– norma ijodkorligi faoliyati to‘g‘risidagi axborot;

– deputatning aholi murojaatlari bilan ishlash holati yuzasidan qilingan ishlari haqidagi ma’lumotlar;

– o‘z saylov hududida axborot davri mobaynida amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi, shuningdek, oldingi uchrashuv yakuni bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlariga yuklatilgan vazifalarning ijrosi haqidagi ma’lumotlar;

– o‘z saylov okrugidagi ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, maishiy va boshqa muammolar, ularni bartaraf etish bo‘yicha rejalar;

– navbatdagi axborot berish davrigacha bo‘lgan muddatda amalga oshiriladigan ishlar.

13. Deputat axboroti qoida tariqasida davlat tilida beriladi, agar u saylangan hudud aholisining katta qismini boshqa millat vakillari tashkil etgan taqdirda o‘sha hudud aholisi so‘zlashadigan tilda ham bo‘lishi mumkin.

4-bob. Deputatning saylovchilar oldida o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotini berish tartib-taomillari

14. Deputatning o‘z faoliyati to‘g‘risida axborotini berish jarayonida saylovchilar, o‘zi nomzod etib ko‘rsatilgan siyosiy partiya vakillari, shuningdek, uning taklifi bilan hududdagi davlat organlari va tashkilotlari hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari, jamoatchilik vakillari, OAV va boshqalar ishtirok etishlari mumkin.

15. Deputat saylovchilarga axborot berishni boshlashdan oldin uchrashuvda ishtirok etayotgan shaxslar haqida ma’lumot beradi hamda uchrashuv bayonnomasini yuritish uchun vakil tayinlaydi.

Uchrashuvda qayd etilgan har bir masala bayonnomaga kiritib boriladi hamda yig‘ilishdan so‘ng deputat tomonidan tasdiqlanadi.

16. Deputat axborot berish jarayonida o‘zi saylangan hududdagi mavjud muammolarni hal etish choralarini ko‘rish bo‘yicha ishtirok etayotgan tegishli davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining fikrini eshitadi hamda muammolarni bartaraf etish choralarini muhokama qiladi.

Deputat axborotini eshitish davomida saylovchilar o‘z hududidagi dolzarb muammolar yuzasidan fikr bildirishlari va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif berishlari mumkin.

17. Uchrashuv davomida saylovchilar tomonidan ko‘tarilgan muammo aholining moddiy, ijtimoiy, iqtisodiy va shu kabi boshqa holatlari bo‘yicha qayd etilganda, shuningdek, zudlik bilan

chora ko‘rilishi talab qilinadigan holatlarda deputat tegishli davlat organi va tashkilotiga (uning mansabdor shaxsiga) “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunga asosan deputat so‘rovi yoki murojaat yuboradi.

5-bob. Uchrashuvda saylovchilar tomonidan ko‘tarilgan masalalarni mahalliy Kengashga kiritish va ularning ijrosini nazorat qilish

18. Deputat tomonidan tasdiqlangan bayonnoma tuman Kengashi kotibiyatiga taqdim etiladi.

Deputatlar taqdim etgan bayonnomalar tuman Kengashi kotibiyati tomonidan tahlil etilib, tuman Kengashi sessiyasi majlisiga kiritilishi mumkin bo‘lgan muammoli masalalar sohalar kesimida ajratilgan holda yig‘iladi. Bunda har bir oy uchun alohida ma’lumot shakllantiriladi.

19. Tuman Kengashi kotibiyati yig‘ilgan muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha Kengash qarori va chora-tadbirlar rejasini (1 va 2-ilovalardagi namunaviy shakl asosida) ishlab chiqadi hamda tasdiqlash uchun belgilangan tartibda tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi muhokamasiga kiritilishini tashkil qiladi.

20. Tuman Kengashi tomonidan qabul qilingan qaror ijro qilish uchun o‘n kunlik muddatda tegishli davlat organlari va tashkilotlariga ro‘yxat asosida yuboriladi.

21. Tegishli davlat organlari va tashkilotlari qarorda belgilangan topshiriq ijrosi bo‘yicha ko‘riladigan zarur choralar va amalga oshiriladigan ishlar haqida tuman Kengashiga ma’lumot kiritib boradi.

22. Tuman Kengashi qarori bilan mas’ul etib belgilangan tuman Kengashi doimiy komissiyasi va deputatlar davlat organlari va tashkilotlari tomonidan uning ijro etilishi bo‘yicha nazoratni amalga oshiradi.

23. Deputatlar tomonidan axborot berish jarayonida aniqlangan muammoli masalalar viloyat yoki respublika darajasida hal etilishi talab etilgan taqdirda, xalq deputatlari tuman Kengashi bu haqida tegishincha xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashiga yoki Oliy Majlis palatalarining shu hududdan saylangan deputat va senatorlariga murojaat qilishi mumkin.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

24. Deputatning o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axboroti ommaviy axborot vositalarida, siyosiy partiyalarning hamda tuman Kengashining rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e’lon qilib boriladi.

25. Saylovchilar deputatning o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotidan qoniqmagan taqdirda, deputatni chaqirib olish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuman Kengashlarga yoki siyosiy partiyalarga murojaat qilishlari mumkin.

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining
2025-yil 21-fevraldagi
VII-5-50-7-95-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining joriy yilning birinchi choragida saylovchilar oldida o‘z faoliyati va kelgusidagi rejalari yuzasidan axborot berish
Reja-grafigi

№	Saylov okrugi raqami va nomi	Saylov okrugining chegarasi	Deputatning F.I.Sh	Saylovchilar bilan o‘tkaziladigan uchrashuv vaqti va joyi	Uchrashuvni tashkil etish uchun ma’sullar va ishtirok etuvchilar
1.	**1-Quruvchi**	Safaxo‘ja	Sadullayev Olim Sattarovich	14.04.2025-yil Ishtixon tuman 30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Tuman hokimligi, tegishli boshqarma, tashkilot vakillari (kelishilgan holda), mahalla yettiligi, siyosiy partiyalarining hududiy Kengashlari rahbarlari, Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari, “Ishtixon ovozi” gazetasi tahririyati
2.	**1-Quruvchi**	O‘zbekiston	Sadullayev Olim Sattarovich	15.04.2025-yil Ishtixon tuman 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
3.	**2-Nizomiy**	G‘.G‘ulom	Ochilov Suxrob Baxodirovich	16.04.2025-yil Abu Ali Ibn sino nomidagi Ishtixon jamoat salomatligi texnikumi	
4.	**2-Nizomiy**	J.Mahmudov	Ochilov Suxrob Baxodirovich	17.04.2025-yil Ishtixon tuman 35-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
5.	**3-Qirqyigit**	Shayxlarkent	Abdurazzaqov Faxriddin Yoqubovich	14.04.2025-yil Ishtixon tuman 20-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
6.	**3-Qirqyigit**	Qirqyigit	Abdurazzaqov Faxriddin Yoqubovich	15.04.2025-yil Ishtixon tumani “Qirqyigit” MFY binosi	
7.	**4-Azamat**	Azamat	Mardanova Shaxlo Normamatovna	17.04.2025-yil Ishtixon tuman Azamat OSHP binosi	

8.	**4-Azamat**	Boylata	Mardanova Shaxlo Normamatovna	18.04.2025-yil Ishtixon tuman 92-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
9.	**4-Azamat**	Dehqonobod	Mardanova Shaxlo Normamatovna	19.04.2025-yil Ishtixon tuman 27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
10.	**5-Navoiy**	Katta Qangli	Xakimova Nasiba Jurakulovna	14.04.2025-yil Ishtixon tuman 62-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
11.	**5-Navoiy**	Beshkapa	Xakimova Nasiba Jurakulovna	15.04.2025-yil Ishtixon tuman 64-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
12.	**5-Navoiy**	Bo‘ronxo‘ja MFYning bir qismi	Xakimova Nasiba Jurakulovna	16.04.2025-yil Ishtixon tuman 65-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
13.	**6-Sug‘ot**	Bo‘ronxo‘ja MFYning bir qismi	Saydazimova Umida Maksudovna		
14.	**6-Sug‘ot**	Sug‘ot	Saydazimova Umida Maksudovna	14.04.2025-yil Ishtixon tuman 74-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
15.	**6-Sug‘ot**	Ravot	Saydazimova Umida Maksudovna	15.04.2025-yil Ishtixon tuman 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
16.	7**-Shayxlar**	Yo‘g‘ontepa	Umirova Manzura Ro‘zimurot qizi	16.04.2025-yil Ishtixon tuman 31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
17.	7**-Shayxlar**	Ko‘ktepa	Umirova Manzura Ro‘zimurot qizi	17.04.2025-yil Ishtixon tumani “Ko‘ktepa” MFY binosi	
18.	7**-Shayxlar**	Shayxlar MFYning bir qismi	Umirova Manzura Ro‘zimurot qizi	18.04.2025-yil Ishtixon tumani “Shayxlar” MFY binosi	
19.	**8-O‘zbekiston**	Shayxlar MFYning bir qismi	Safarova Gulmira Karimovna		
20.	**8-O‘zbekiston**	Mohpar	Safarova Gulmira Karimovna	17.04.2025-yil Ishtixon tuman 60-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
21.	**8-O‘zbekiston**	Bog‘bon	Safarova Gulmira Karimovna	19.04.2025-yil Ishtixon tuman 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	

22.	**8-O‘zbekiston**	Mirzaqul	Safarova Gulmira Karimovna	21.04.2025-yil Ishtixon tuman 26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
23.	**9-Yangiravot**	Yangirovat	Abdusalomov Elyor Salaxiddinovich	18.04.2025-yil Ishtixon tuman 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
24.	**9-Yangiravot**	Zartepa	Abdusalomov Elyor Salaxiddinovich	19.04.2025-yil Ishtixon tuman 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
25.	**9-Yangiravot**	Hazarbobo	Abdusalomov Elyor Salaxiddinovich	21.04.2025-yil Ishtixon tumani “Hazarbobo” MFY binosi	
26.	**10-Arabxona**	Zarbuloq	Rabbimov Aziz Usmonovich	22.04.2025-yil Ishtixon tumani “Zarbuloq” MFY binosi	
27.	**10-Arabxona**	Minglar	Rabbimov Aziz Usmonovich	23.04.2025-yil Ishtixon tuman 55-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
28.	**11-Chayjovul**	Beshariq	Soliyeva Vasila Ismailovna	21.04.2025-yil Ishtixon tuman 17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
29.	**11-Chayjovul**	Humo	Soliyeva Vasila Ismailovna	22.04.2025-yil Ishtixon tuman 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
30.	**12-Xalqobod**	Xalqobod	Kuvondikov Laziz Melikuziyevich	24.04.2025-yil Ishtixon tuman 5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
31.	**12-Xalqobod**	Murodobod	Kuvondikov Laziz Melikuziyevich	25.04.2025-yil Ishtixon tuman 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
32.	**13-Kartepa**	Qo‘ng‘irot	Rasulov Jamshid Gulomovich	19.04.2025-yil Ishtixon tuman 13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
33.	**13-Kartepa**	Chinortepa	Rasulov Jamshid Gulomovich	21.04.2025-yil Ishtixon tuman 21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
34.	**14-Bahrin**	Ko‘tarma	Nurmuxamedov Ulugbek Erkinovich	23.04.2025-yil Ishtixon tuman 56-umumiy o‘rta	

				ta’lim maktabi	
35.	**14-Bahrin**	Bahrin	Nurmuxamedov Ulugbek Erkinovich	24.04.2025-yil Ishtixon tumani “Bahrin” MFY binosi	
36.	**14-Bahrin**	Qoraqo‘yli	Nurmuxamedov Ulugbek Erkinovich	25.04.2025-yil Ishtixon tumani 2-son politexnikumi	
37.	**14-Bahrin**	Ishtixon	Nurmuxamedov Ulugbek Erkinovich	26.04.2025-yil Ishtixon tumani axborot-kutubxona markazi	
38.	**15-Qoracha**	Shayxislom	Mavlyanov Jamol Ortikovich	14.04.2025-yil Ishtixon tuman 37-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
39.	**15-Qoracha**	Damariq	Mavlyanov Jamol Ortikovich	15.04.2025-yil Ishtixon tuman 39-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
40.	**15-Qoracha**	Toytuyoq	Mavlyanov Jamol Ortikovich	16.04.2025-yil Ishtixon tuman 63-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
41.	**16-Zarband**	Zarband	Xidirov Baxodir Narzullayevich	22.04.2025-yil Ishtixon tuman 88-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
42.	**16-Zarband**	Beshbola	Xidirov Baxodir Narzullayevich	23.04.2025-yil Ishtixon tuman 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
43.	**16-Zarband**	Boyto‘bi	Xidirov Baxodir Narzullayevich	24.04.2025-yil Ishtixon tuman 34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
44.	**17-Yangikent**	Bo‘ston	Raximov Mutallib Amirkulovich	22.04.2025-yil Ishtixon tuman 67-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
45.	**17-Yangikent**	Yangikent	Raximov Mutallib Amirkulovich	23.04.2025-yil Ishtixon tumani “Yangikent” MFY binosi	
46.	**18-Chimqurg‘on**	Chimqo‘rg‘on	Umarov Javlon Nafasbayevich	25.04.2025-yil Ishtixon tuman 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
47.	**18-Chimqurg‘on**	Chaqar	Umarov Javlon	26.04.2025-yil	

			Nafasbayevich	Ishtixon tuman 36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
48.	**19-Mingchinor**	Tupor	Abdug‘aniyev Samo Nizomovich	26.04.2025-yil Ishtixon tumani “Tupor” MFY binosi	
49.	**19-Mingchinor**	Namuna	Abdug‘aniyev Samo Nizomovich	28.04.2025-yil Ishtixon tuman 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
50.	**19-Mingchinor**	Barlos MFYning bir qismi	Abdug‘aniyev Samo Nizomovich	29.04.2025-yil Ishtixon tuman 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
51.	**20-Mitan**	Q.Qarshiyev	Kiyamov Nurali Kuvandikovich	30.04.2025-yil Ishtixon tumani 1-son politexnikumi	
52.	**20-Mitan**	Qoraqishloq	Kiyamov Nurali Kuvandikovich	7.04.2025-yil Ishtixon tumani “Qoraqishloq” MFY binosi	
53.	**20-Mitan**	Xonaqo	Kiyamov Nurali Kuvandikovich	8.04.2025-yil Ishtixon tuman 42-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
54.	**21-Chag‘atoy**	Do‘stlik	Abdurazzaqova Zebo Safarovna	17.04.2025-yil Ishtixon tumani “Do‘stlik” MFY binosi	
55.	**21-Chag‘atoy**	Chag‘atoy MFYning bir qismi	Abdurazzaqova Zebo Safarovna	18.04.2025-yil Ishtixon tuman 45-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
56.	**22-Qiyot**	Chag‘atoy MFYning bir qismi	Raximova Shaxodat Urinovna		
57.	**22-Qiyot**	Qiyot	Raximova Shaxodat Urinovna	19.04.2025-yil Ishtixon tuman 46-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
58.	**23-Odil**	Odil	Ruziyev Fazliddin Kiranovich	12.04.2025-yil Ishtixon tuman 50-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
59.	**23-Odil**	Gulobod	Ruziyev Fazliddin Kiranovich	28.04.2025-yil Ishtixon tuman 49-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
60.	**23-Odil**	Mirishkor	Ruziyev Fazliddin Kiranovich	30.04.2025-yil Ishtixon tuman 76-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	

61.	**24-Qulchara**	Barlos MFYning bir qismi	Xudoyberganova Gulpashsha Sharipovna	29.04.2025-yil Ishtixon tuman 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
62.	**24-Qulchara**	Orlot	Xudoyberganova Gulpashsha Sharipovna	8.04.2025-yil Ishtixon tuman 72-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
63.	**24-Qulchara**	Sohibkor	Xudoyberganova Gulpashsha Sharipovna	9.04.2025-yil Ishtixon tuman 77-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
64.	**25-Qayirma**	Qayirma	Naxalov Zayniddin Guzarboyevich	10.04.2025-yil Ishtixon tuman 70-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
65.	**25-Qayirma**	Bog‘ixon	Naxalov Zayniddin Guzarboyevich	11.04.2025-yil Ishtixon tuman 71-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	
66.	**25-Qayirma**	O‘zbekqo‘rg‘on	Naxalov Zayniddin Guzarboyevich	12.04.2025-yil Ishtixon tuman 91-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	

Xalq deputatlari Ishtixon tumani
Kengashining
2025-yil 21-fevraldagi
VII-5-50-7-95-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputatlari tomonidan saylovchilar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlarda ko‘tarilgan muammolarni hal etish bo‘yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Nazorat uchun mas’ul	Mas’ul ijrochilar
I. Ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari					
1.					
2.					
II. Transport, sanoat va qurilish yo‘nalishida va avtomobil yo‘llari sohasidagi masalalari					
1.					
2.					
III. Aholiga sifatli kommunal xizmat ko‘rsatishni ta’minlash masalalari					
1.					
2.					
IV. Aholini ijtimoiy himoya qilish, yashash sharoitlarini yaxshilash, bandligini ta’minlash va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish yo‘nalishida					
1.					
2.					
V. Obodonlashtirish, ekologiya va mahallalar infratuzilmasini yaxshilash masalalari					
1.					
2.					